PLANIMTERIYANI DASTLABKI DARSLARINI O‘QITISH METODIKASI

Raxmonov Jamshidbek Turdaliyevich - Guliston davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Abdullayeva Ozodaxon To‘lqinboy qizi - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
Nurbayev Abdurashid Ravshanovich – GULDU o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ishda geometriyaning planimetriya kursini qanday asosiy metodika asosida kiritish ustida tatqiqot olib borildi va an’anaviy va o‘ziga xos tarzda takliflar asosida mavzu bayoni aksiomalar va ta’riflar asosida ochib berildi.

Kalit so‘zlar. Aksioma, ta’rif, planimetriya, nuqta, tekislik, to‘g‘ri chiziq, nur, yarim to‘g‘ri chiziq, metodika.

Geometriya kursida boshlang‘ich tushunchalar bu planimetriyaga kirishdan boshlanadi. Planimetriyaga kirish esa ta‘riflardan boshlanadi. Dastavval asosiy tushunchalar kiritiladi, undan so‘ng esa asosiy ta‘riflar kiritiladi. Asosiy tushunchalarni kiritishda ko‘rgazmalilik muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalan tekislik, stol yuzasi, sokin suv, doska yuzasi kabilar ko‘rgazmali tushunchalardir. Bundan keying asosiy tushunchalar bu aksiomalardir. Aksiomalar isbotlanishi zarur bo‘lmagan tushunchalardir.

Planimetriyaning dastlabki darslarini o‘qitish metodikasi asosiy tushunchalarni kiritishdan boshlanadi. Eng avval nuqta tushunchasi kiritiladi, ya‘ni nuqta ruchkani daftarga tekkizish yoki bo‘rni tekkizish orqali va tekislikka nuqtani misol keltirish orqali kiritamiz. Va yana shunday ta‘rif berilmaydihgan tushunchalardan tekislik va to‘g‘ri chiziqdir. Tekislik ko‘rgazmalilik asosida o‘ziga xos tarzda, masalan, sokin suvning yuzi yoki parta yuzi kabi tushunchalar asosida kiritilishi mantiqiy jihatdan eng to‘g‘ri yo‘ldir.

Nuqtalar, to‘g‘ri chiziq, tekislik kiritilgandan keyin ta‘riflarga undan so‘ng aksiomatikaga o‘tiladi. Ta‘riflardan eng avval planimetriyaga ta‘rif beriladi.

Ta‘rif. Geometriyaning yassi shakllarini o‘rganuvchi qismi Planimteriya deyiladi.

Ta‘rif. Nuqtalarning har qanday to‘plamiga figura deyiladi.

Aksiomalar

1. To‘g‘ri chiziq har qanday bo‘lmasin unga tegishli bo‘lgan va tegishli bo‘lmagan nuqtalar mavjud.

2. To‘g‘ri chiziqda berilgan uchta nuqtadan bittasi va faqat bittasi qolganlarining orasida yotadi.

3. Tekislikda berilgan ikkita turli nuqtalardan bitta va faqat bitta to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin.

4. To‘g‘ri chiziq bitta nuqtasi orqali ikkita yarim to‘g‘ri chiziqga ajraladi.

Bundan ko‘rinadiki, yuqoridagi 4-aksiomada, go‘yo yarim to‘g‘ri chiziq va nurning ta‘riflari ham kiritilib o‘tildi.

Dastlabki darslarda, ayniqsa geometriyaning rivojlanish bosqichlari texnika va turmushda eng muhim fanlardan biri ekanligi, eng asosiysi, aniq fanlarning amaliy debochasi ekanligi eslatib o‘tiladi.

Ko‘rib chiqilgan ishda planimetriyaning dastlabki darslarini o‘qitishning umumiy metodikasi va unga mos o‘ziga xos takliflar kiritildi. Aksiomalardan oldin muhim ta‘riflar kiritib olish zarurligi ta‘kidlandi, aks holda har bir aksiomadan oldin alohida ularga to‘xtalib o‘tish muammosiga duch kelish mumkinligi ta‘kidalab o‘tildi. Ba‘zi bir aksiomalarda planimetriyaning asosiy tushunchalari ta‘riflanib qolishi mumkinligi bayon etildi. Yuqoridagi kabi yonadashuvlarda “Planimetriya” ning dastlabki darslarini o‘qitish metodikasi talaba shaxsida ham, o‘quvchilarda ham o‘ziga xos bilim, ko‘nikma va malakalrni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alixonov A.S. Matematika o‘qitish metodikasi. 2010

2. Pogorelov A. V. Geometriya 7-11. Darslik,1990 yil .Toshkent. O‘qituvchi nashriyoti.

3. https://t.me/grand_matematika